

## **JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT BILAN QARSHI TURMOQ: MUAMMO VA YECHIM**

Hodiyeva Zarnigir Bahromovna

Buxoro viloyati Gijduvon tuman 36-son DMTT direktori

### **Annotatsiya**

Maqolada jaholataga qarshi kurashishda Qoraqolpog‘istonda yuz bergan tartibsizliklar va uning aktiv qismi bo‘lgan qoraqolpoq yoshlari muammosi hamda bugungi kunda voyaga yetmagan bolalarimizni xulq-atvori, dunyoqarashi va unga ta’sir ko‘rsatayotgan globallashuvning salbiy illatlari ilmiy jihatdan tahlil qilib berildi.

**Kalit so‘zlar:** inson qadri, internet, butun dunyo o‘rgimchak to‘ri, Ta’lim-tarbiya va ma’rifat.

### **FIGHTING IGNORANCE WITH ENLIGHTENMENT: PROBLEM AND SOLUTION**

#### **Abstract**

In the article, the riots that occurred in Karakalpakstan in the fight against ignorance and the problem of Karakalpak youth, who are an active part of it, as well as the behavior and worldview of our minors today, and the negative effects of globalization affecting them were scientifically analyzed.

Key words: human value, Internet, worldwide spider web, Education and enlightenment

Dunyoda hech bir xalq yo‘qki erkiniksiz, ozodliksiz yashay olmaydi. Har bir xalqning tarixida buyuk yo‘lboshchilar o‘z xalqi, o‘z vatani uchun kurashgan va hatto o‘z jonlarini fido qilishgan. Dunyoda albatta ikkita qarama-qarshi kuchlar bor-ki yovuzlikka qarshi har doim ezgulik bilan kurashib kelingan.

Hozirgi axborotlashayotgan mediyaolamning o‘z qonunlari va mentaliteti bor. Afrikada savanna o‘rmonlarida “Sher” deb atalmish hayvonlarning ichida hech qanday tartibotlarga bo‘ysunmay yashaydigan bir jonivor bor-ki hatto u ham vaqtiga qo‘shingan savanna qonunlariga bo‘ysunib yashashga majbur.

Insoniyat necha million yillardan beri yer sayyorasining hokimi bo‘lib o‘z qonunlari, o‘z tartibotlarini o‘rnatib yashab kelmoqda. Bugun XXI asr insonlar oldiga juda ko‘p muammolarni qo‘ymoqda-ki, bu muammolarni hech qachon zo‘ravonlik yo‘li bilan, quroq ishlatish yo‘li bilan yechib bo‘lmasligini hayotning o‘zi ko‘rsatib qo‘ymoqda. Qaerdaki “...beeparvolik bo‘lsa, loqaydlik bo‘lsa, hamma ishni ayniqsa ta’lim-tarbiyani o‘zi bo‘larchilikka tashlab qo‘ydigan bo‘lsa” o‘sha yerda inson ma’naviyati va madaniyati uchun salbiy bo‘lgan har xil populistik shiorlar, fikrlar va g‘oyalar o‘z o‘rnini egallay boshlaydi.

Bu esa jamiyatda mavjud bo‘linishni hatto necha ming yillardan beri ahil inoq bo‘lib, og‘a-ini bo‘lib yashab kelgan, bir daryordan suv ichib, birga umrguzaronlik qilgan xalqlarni va millatlarni ayirish, ajratish kabi qarashlarni yuzaga keltirmoqda.

Biz uchun qadrli bo‘lgan Qoraqolpoq xalqi mana necha asrlarki biz bilan yaxshi kuminizda ham yomon kuminizda yelkama yelka bo‘lib yashab kelmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan “inson qadri” uchun bosh tamoyil sifatida belgilab berilgan “so‘z erkinligini, fikr erkinligini” oliv mentalitetga aylantirish tashabbusini ming afsuski, chetdan turib yolg‘on (feyk) xabarlar bilan hali ongi va tafakkuri pishib yetilmagan qoraqolpoq yoshlarini davlatning konstitutsiyaviy tuzimiga qarshi oyoqqa turg‘izish, kerak bo‘lsa et bilan tirnoq bo‘lgan bu xalqlarni bir-biridan ajratish uchun oldindan puxta tayyorgarlik ko‘rib Qoraqolpoq xalqining ishonchini manipulyatsiya qilishga urinib ko‘rdi.

Muhtarma Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning kuni kecha “*Meni bugun Qoraqalpog‘istoniga ko‘nglim olib keldi, mehrim olib keldi, yuragim olib keldi*” deya, aytgan gaplari meni ko‘p va xo‘p mushohada qilishga undamoqda. Chunki bu gaplarni Prezident yuragidan, qalbining eng ezgu ummonidan olib aytdi. Hatto 1 so‘m topsam 60 tiynini Qoraqolpog‘istoniga sarflayman deganlarida keyingi 5 yilda bu mamlakatda “uzluksiz ta’limning” boshlang‘ich bo‘g‘ini yangi, zamonaviy bog‘chalarni bunyod ettirdi, yangi va ko‘rkam maktablar bunyod etilmoqda, Qoraqolpoq yoshlarining kasb-hunari uchun imkoniyatlar eshigi bo‘lmish kasb-hunar maktablari, kollejlar, texnikumlar va Oliy o‘quv yurtlari bunyod etilmoqda. Shu bilan birga yangi zavodlar, korxonalar va sexlar qurilib foydalanishga topshirilmoqda.

Albatta buni hammasi “tinchlik” deb atalmish ulug‘ ne’matning orqasidan ro‘y bermoqda. Bugun tobora inson uchun ham foyda, ham zarar keltirayotgan mediyaolamning zararli axborotlari odamzotni o‘z iskanjasiga solmoqda.

Alkogol mahsulotni ishlab chiqarayotgan ishlab chiqaruvchilar uni etiketkasiga “me’yoridan ortiq alkogol mahsulot istemol qilish inson salomatligi uchun zarar” deb yozib ogoxlantiradi. Tanla xohla ich, xohlama ichma, erkinliginig o‘z qo‘lingda.

Tamaki mahsulotni ishlab chiqarayotgan ishlab chiqaruvchi uni etiketkasiga “tamaki mahsulotlari chekish inson sog‘ligi uchun zarar” deya ogoxlantiruvchi yozuvni yozib qo‘yishadi.

Siz-u biz har kuni uyqudan turib kech uyqugacha axborotlar olamani vositachisi hisoblanmish “internet” yoki “WWW” mana bu belgi “butun dunyo o‘rgimchak to‘ri” deya atalmish do‘kondan foydalanimiz. Hatto bunda ham ogohlantiruvchi belgi bor yani ehtirot bo‘l me’yoridan ortiq internetda o‘tirsang o‘rgimchak to‘rining mahkumiga aylanasan deya ogoxlantirmoqda.

Biz uchun bu to‘rga yoki mediyaolamga yagona qarshi turaoladigan ulug‘ bir kuch bor-ki bu – ta’lim-tarbiya va ma’rifatdir. Ta’lim-tarbiya va ma’rifat inson shaxsini shakllanishidagi uzoq jarayondir. Va bu jarayonda biz yoshlarimizni maktabgacha yoshdagи paytidan boshlab olayotgan har xil “axborot mahsulotlari” ichidagilarini ham “oqni oq, qorani qora” deb ajratib berishimiz bizning ham farzimiz, ham qarzimizdir.

Oxirgi paytlarda umumta'lim ta'lifi muassasalari o'quvchilari orasida arzimagan janjallar orqali bir-birini pichoqlab qo'yish eki og'ir tan jarohatlarini etkazish, hatto oqibatda bir yosh norasida tengdoshining o'limiga sababchi bo'lib qolish holatlari uchramoqda. Ammo, mana shu janjallar o'z-o'zidan kelib chiqmayotganligini, ushbu janjallar yoki rejalashtirilayotgan o'g'irliklar kamida bir-ikki kun oldin do'stlari orasida rejalashtirilganligini, janjalda ishtirok etmasada ushbu holatdan xabardor bo'lgan yoshlari borligini hammamiz bilib turibmizku. Nega xabar qilmaymiz, nega bong urmaymiz hurmatli yoshlari?! Sababi befarqmiz! Rahmatli birinchi prezidentimiz I.Karimov aytganlaridek: "Dushmanlardan qo'rhma – nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rhma – nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rma – ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli er yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi". Bu borada ishni avvalo o'zimizdagい befarklikni yo'qotishdan boshlashimiz kerak, qadrli farzandlarimiz! E'tiboringizni O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentyabrdagi «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to'g'risida»gi qonunda belgilab qo'yilgan quyidagi asosiy tushunchalarga qaratmoqchiman:

**voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi** — voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbazarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi;

**ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga etmagan** — voyaga etmaganning nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan yoxud uni ta'minlash, tarbiyalash va unga ta'lim berish talablariga javob bermaydigan sharoitda bo'lgan yoxud huquqbazarlik yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etayotgan voyaga etmagan;

**ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila** — ota-onalarni yoki ota-onalarni o'rnini bosuvchi shaxslar voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan oila;

**nazoratsiz** — ota-onalarni yoki ota-onalarni o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga etmaganni ta'minlash, tarbiyalash va unga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida xulq-atvori nazoratsiz qolgan voyaga etmagan;

**qarovsiz** — aniq yashash joyi bo'lmagan nazoratsiz qolgan voyaga etmagan;

**g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar** — voyaga etmaganning muntazam ravishda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishida, fohishalik, tilanchilik bilan shug'ullanishida ifodalanadigan xatti-

harakatlari, shuningdek o‘zga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzadigan boshqa xatti-harakatlari.

Yoshlarimiz ushbu ta’riflangan holatlarni o‘z o‘rtoqlarida kuzatsa yoki o‘zlar ushbu vaziyatga tushib qolsa, darrov bu haqida xabarni o‘zi o‘qiyotgan ta’lim muassasasiga yoki mahallasiga borib aytса, tegishli mutasaddilar ushbu holatdagi yoshlarni bilib bilmay biron bir huquqbazarlik sodir etib qo‘ymasligini oldini olgan bo‘lar edi.

Bu holatda biz, bu toifa yoshlar tomonidan huquqbazarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, ularga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish; voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minalash; voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish; ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni ijtimoiy-pedagogik reabilitasiya qilish; voyaga yetmaganlarni huquqbazarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir qilishga jalb etish hollarini aniqlash va ularga barham berish orqali huquqbazarliklarning oldini olgan bo‘lar edik.

Shu yerda hurmatli ota-onalarimizni ham ogohlilikka chaqirib, farzand tarbiyasida majburiyatlarini eslatib o‘tishni lozim deb bildik.

Ota-onsi ota-onsi o‘rnini bosuvchi shaxslar bolalarini ta’minalash, tarbiyalash va ularga ta’lim berish bo‘yicha majburiyatlarini bajara borib, ularning xavfsizligini, hayoti va sog‘lig‘i muhofaza qilinishini, nazoratsizligi va huquqbazarliklarining profilaktikasini ta’minalash maqsadida, ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan voyaga yetmaganlarning o‘qish vaqtida restoranlar, kafelar, barlar, klublar, diskotekalar, kinoteatrлar, kompyuter zallari, Internet tarmog‘idan foydalanish xizmatlarini ko‘rsatish uchun jihozlangan xonalarda yoxud boshqa ko‘ngilochar (dam olish) joylarda bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasligi; voyaga yetmaganlarning spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni iste’mol qilishiga, chekishiga yo‘l qo‘ymasligi; voyaga yetmaganlarning huquqbazarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishiga yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlarini ko‘rishi lozim.

Xulosa qilganda kurash maydoni – bolalik, yo‘l esa – “jaholatga qarshi ma’rifat” yo‘li.

- *Bu yo‘l – oddiygina Assalomu-alaykumdan*
- *Bu yo‘l – ko‘cha-yu ekranlardagi faqat “hayotdan lazzatlanib qol” mazmunidagi reklamalarni, tanini va mashinasini ko‘z-ko‘z qiladigan kliplarni kamaytirishdan boshlanadi.*
- *Bu yo‘l – bolasiga mehribonligini qimmat telefon olib berishda emas, uning vaqtini qanday va kimlar orasida o‘tkazayotganidan xabardor bo‘lishda deb biladigan ota-onalardan boshlanadi.*
- *Bu yo‘l – ota-bobolarimizdan qolgan “Suvga tuflama, harom bo‘ladi”, “Kechasi sayoq yurma, jin chaladi” degan nasihatlar va ertagu rivoyatlar o‘qib berishdek oddiy ma’rifatdan boshlanadi.*

- *Bu yo'l – maktabdayoq yaxshiroq bilim berishga intiladigan fidoyi muallimlardan boshlanadi.*
- *Bu yo'l – internetdagi shafqatsizlik va behayolikdan saboq beradigan saytlar hamda o‘yinlarga cheklov qo‘yishdan boshlanadi.*
- *Bu yo'l – dasturxonga halol topilgan nonni qo‘yib, uning naqadar lazzatli ekani bolalarga aytib beriladigan oilalardan boshlanadi.*
- *Bu yo'l – o‘ziga ishongan, o‘z oldiga aniq maqsadlarni qo‘yib, dadil qadam bosadigan barkamol yoshlарimizdan boshlanadi.*